https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble

Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Boltayeva Shoxsanam Boymurod qizi
Qarshi Davlat Universiteti
Iqtisodiyot fakulteti 2-bosqich talabasi
shoxsanamboltayeva971@gmail.com
Ilmiy rahbar:
Tohirova Nigora Zokirjon qizi
Qarshi Davlat Universiteti
Iqtisodiyot kafedrasi o‘qituvchisi
nigora.takhirova@gmail.com

O‘ZBEKISTON–2030 STRATEGIYASI SHAROITIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI VA MEHNAT UNUMDORLIGIGA TA’SIRI

Annotatsiya

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekiston -2030 strategiyasi sharoitida inson kapitalini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari xodimlarning mehnat faoliyati jarayonida mehnat unumdorligiga ta’siri tahlil qilinadi. Korxona va tashkilotlarda Inson resurslarini Boshqarish bo‘limi xodimlarning mehnat faoliayati davomida mehnat unumdorligini tahlil qilib ,xodimlarni inson kapitalini rivojlantirish maqsadida chora-tadbirlar va trening dasturlar amalga oshirilishi ta’kidlanadi. Korxona va tashkilotlarlar xodimlarning mehnat faoliyati jarayonida inson kapitalini oshirish uchun statistik tahlil metodidan tahlil qilinadi va bir nechta faktlar va xorijiy usullarni misol keltiriladi.Maqolaning mazmuni shundan iboratki O ‘zbekiston -2030 strategiyasi sharoitida inson kapitali va iqtisodiy mexanizmlari mehnat unumdorligiga ta’sir qiladigan omillarni tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar

O‘zbekiston 2030-strategiyasi,menat unumdorligi,xodimlar,statistik metod tahlili,mehat faoliyati,Inson resurslarini boshqarish,korxona,tashkilot,inson kaptali.

Abstract

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

The aim of this study is to analyze the impact of economic mechanisms for developing human capital on labor productivity during employees' work activities under the Uzbekistan–2030 Strategy. It emphasizes that Human Resource Management departments in enterprises and organizations evaluate labor productivity and implement measures and training programs to develop employees' human capital. To enhance human capital in the course of labor activities, statistical analysis methods are applied, and several examples of domestic and foreign practices are presented. The content of the article focuses on identifying factors through which human capital and economic mechanisms influence labor productivity under the Uzbekistan–2030 Strategy.

Keywords

Uzbekistan–2030 Strategy, labor productivity, employees, statistical analysis methods, labor activity, human resource management, enterprise, organization, human capital.

Аннотация

Целью данного исследования является анализ влияния экономических механизмов развития человеческого капитала на производительность труда в процессе трудовой деятельности сотрудников в условиях стратегии «Узбекистан–2030». Подчеркивается, что подразделения по управлению человеческими ресурсами на предприятиях и в организациях оценивают производительность труда и внедряют меры и обучающие программы для развития человеческого капитала сотрудников. Для повышения человеческого капитала в ходе трудовой деятельности применяются методы статистического анализа, а также приводятся примеры отечественного и зарубежного опыта. Содержание статьи сосредоточено на анализе факторов, через которые человеческий капитал и экономические механизмы влияют на производительность труда в условиях стратегии «Узбекистан–2030».

Ключевые слова

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

стратегия «Узбекистан–2030», производительность труда, сотрудники, методы статистического анализа, трудовая деятельность, управление человеческими ресурсами, предприятие, организация, человеческий капитал.

KIRISH

Inson kapitali (ing. human capital) — bu inson va umuman jamiyatning turli ehtiyojlarini qondirish uchun ishlatiladigan bilimlar, ko‘nikmalar to‘plami. Inson potensialini tashkil etuvchi turli xususiyatlar ichida, inson kapitali aynan daromadlarning o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatuvchi xususiyatlarni ifodalaydi, shu jihatdan inson kapitali ishchining maxsus ta’lim, kasb-hunarga tayyorlash va ishlab chiqarish tajribasi asosida to‘plangan bilimlari, ularni amalda qo‘llashi va mahoratini o‘z ichiga oladi.[1] [1] Tajriba va tadqiqotlar shuni ko ‘rsatadiki ,inson kapitaliga investititsiya qilgan mamlakatlar rivojlanishni eng oxirgi cho‘qqisiga erishgan.

Mamlakat	**Ta’limning to‘liq sikliga sarflangan sarmoya (dollar)**	**Bir xodim yaratadigan qo‘shimcha qiymatning miqdori (dollar)**
AQSH	231 000	3,1 mln.
Janubiy Koreya	130 000	2,1 mln.
O‘zbekiston	19 000	77 ming

Jahonda eng rivojlangan mamlakat AQSH ham fuqarolarning inson kapitalini rivojlanishi uchun juda katta investtitsiya qilgan ekanini yuqorida tanishtirilib o‘tildi.Fuqarolarning inson kapitali yuqori darajada ijobiy k ‘tarilsa mamlakatda ko‘plab yangi innovatsiyalar shakllanadi va mamlkat zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni boshlaydi shu bilan birga korxona va tashkilotlarda ishlab chiqarish yuqori bo‘ladi.Dunyo statistika ma’lumotlariga ko ‘ra dunyoning top 1000 talik oliy ta’limlari ko‘p qismi AQSH ga tegishli.bugungi kunda ushbu mamlakat dunyoda o‘zining ishlab chiqarish sanoati bilan va yangi innovatsion texnologiyalari bilan o‘zining milliy valyutasi bilan birinchi o‘rinda turibdi ,bu natijalar shuni aks ettiradiki fuqarolarni sifatli ta’limiga qilingan

[1] https://yuz.uz/uz/news/inson-kapitaliga-etibor--asosiy-vazifa

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

investitsiya yuqori natijalarni olib keladi va mamlakatni rivojlanishiga ham ilkan hissa qo‘shadi.

1.	Maktabgacha ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda bolalarning to‘liq qamrovini ta’minlash.	Bolalarni maktabga tayyorlov guruhlari bilan to‘liq qamrab olish.		
		100 foiz maktabgacha ta’lim tashkilotlarini toza ichimlik suv va zamonaviy sanitariya-gigiyena infratuzilmasi bilan ta’minlash.		
2.	Umumiy o‘rta ta’lim tizimida “Ta’lim uchun qulay muhit” dasturini amalga oshirish.	Olis va chekka hududlarda joylashgan **715 ta** umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari uchun bepul avtobuslarni yo‘lga qo‘yish.		
		Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini **toza ichimlik suv** va **zamonaviy sanitariya-gigiyena** infratuzilmasi bilan **to‘liq** ta’minlash.		

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

“Inson kapitali indeksi (HCI) sog‘liqni saqlash va ta’limning keyingi avlod ishchilarining samaradorligiga qo‘shadigan hissasini o‘lchaydi. Inson kapitaliga sarmoya kiritishning muhimligini anglash esa amaliy choralar ko‘rish uchun turtki yaratadi.”[2] O‘zbekistonda 2025-yilning birinchi yarim yilligi bo‘yicha Milliy statistika qo‘mitasi taqdim etgan iqtisodiy yakunlar jadal o‘sishni ko‘rsatmoqda: mamlakat yalpi ichki mahsuloti (YAIM) 7,2 foizga o‘sdi (o‘tgan yilning shu davrida 6,4 foiz o‘sish bo‘lgan) va bu iqtisodiyot barqaror kengayish rejimiga o‘tayotganini ko‘rsatmoqda.O‘sish tuzilmasi muvozanatli ekanini ko‘rsatmoqda — YAIMdagi o‘sish hissasi iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari o‘rtasida taqsimlangan.Sanoat ishlab chiqarishi 6,6 foizga o‘sdi. Asosiy hissa qayta ishlash sanoatiga to‘g‘ri keldi (+7,1 foiz). Mo‘'tadil, lekin ijobiy natija — qazib olish tarmog‘i (+5,1 foiz) va elektr energetikasi (+3,1 foiz)da kuzatildi. Umumiy hisobda bular YAIM o‘sishiga 1,6 foiz punktida hissa qo‘shdi. Ishlab chiqarish odatiy rejimda ishlamoqda.Qishloq xo‘jaligi 4 foiz o‘sishni namoyon etdi va YAIMga 0,6 foiz punktida hissa qo‘shdi. Bu o‘sish mahsulot hajmlarining

[2] https://www.worldbank.org/en/publication/human-capital

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

tabiiy oshishi hisobiga ta’minlandi: poliz mahsulotlari (+8,3 foiz), mevalar (+6,6 foiz), don (+4,5 foiz). Bu natija rekord darajada emas, lekin barqaror bo‘lib, bu barcha turdagi xo‘jaliklarda kuzatildi. Qurilish sohasi 10,7 foizga o‘sdi. Bir qarashda — kutilmagan darajada yuqori. Ammo tuzilmaga qaralsa, yirik korxonalar umumiy hajmning 22,4 foizini, kichik biznes — 52,1 foizini, qolgan qismni esa norasmiy sektor tashkil etganini ko‘rish mumkin. Bu yuqori faollik emas, balki tabiiy ish jarayoni. Barcha sohalarda qurilish ketmoqda: davlat loyihalari, shaxsiy uy-joylar, tijorat binolari. Ayni paytdagi sur’atlar iqtisodiy jihatdan xavf tug‘dirmayapti.[3]

NATIJA

Tahlil natijalari shuni ko ‘rsatadiki ,inson kapitaliga qilingan investitsiyalar korxona va tashkilotlarni xodimlarini mehnat faoliyatiga sezilarli darajada ijobiy tarzda oshirgan.

MUNOSIB SHAROITLARNI YARATISH[4]		
1.1. Ta’lim tizimi islohotlari		
1.	Maktabgacha ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda bolalarning to‘liq qamrovini ta’minlash.	Bolalarni maktabga tayyorlov guruhlari bilan to‘liq qamrab olish. 100 foiz maktabgacha ta’lim tashkilotlarini toza ichimlik suv va zamonaviy sanitariya-gigiyena infratuzilmasi bilan ta’minlash.
2.	Umumiy o‘rta ta’lim tizimida “Ta’lim uchun qulay muhit” dasturini amalga oshirish.	Olis va chekka hududlarda joylashgan **715 ta** umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari uchun bepul avtobuslarni yo‘lga qo‘yish. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini **toza ichimlik suv** va **zamonaviy sanitariya-gigiyena** infratuzilmasi bilan **to‘liq** ta’minlash.

MUHOKAMA

[3] https://www.gazeta.uz/oz/2025/07/22/yim/

[4] O’zbekiston 2030-strategiyasi

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Natijalar shuni aks ettiradiki O‘zbekiston 2030-strategiyasi bo‘yicha yoshlarga ijtimoiy-iqtisodiy qilingan invesitsiya ijobiy aks ettirilgan va O‘zbekiston Respublikasiga ham ijobiy ta’sir o‘tkazgan.

Iqtisodiyotning eng tez o‘sib borayotgan yo‘nalishlarida amaliy tadqiqotlarni kuchaytirish, “korxona — oliygoh — ilmiy tashkilot” klaster tizimini joriy etish.	Amaliy tadqiqotlarga Davlat budjetidan **4 trillion** so‘m mablag‘ yo‘naltirish.
	Iqtisodiyot tarmoqlarining “drayver” yo‘nalishlarida **850 turdagi** innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish.
	Amaliy tadqiqotlar natijalari asosida **2,5 mingdan ziyod** yangi ilmiy ishlanmalar yaratish.
	Transport va logistika, qishloq xo‘jaligida hosildorlik, energetika, biotexnologiya, geologiya va metallni qayta ishlash, mashinasozlik va elektronika yo‘nalishlarida **8 ta ilmiy ishlab-chiqarish klasterini** tashkil etish.

XULOSA

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko ‘rsatadiki har bir mamlakat o‘z fuqarolariga qilgan investitsiya mamlakatga bo‘lgan eng katta foyda va rivojlanishiga sabab bo‘ladi.inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy kompleks mexanizmlar korxona va tashkilotlarning strategik rejalarini to‘laqonli ijobiy oshishiga sabab bo‘ladi chunki xodimlarni inson kapitali rivojlantirilganidan so‘ng mehnat faoliyatidagi mehnat unumdorligi yuqori darajada oshadi va ishlab chiqarish yuqori bo‘ladi.Tadqiqot xulosa natijalari shuni ko‘rsatadigi har bir mamlakat rivojlanishi uchun eng katta investitsiya mamlakatning ta’lim tizimida bo ‘lishi shart va lozimdir ,yuqoridagi jadvallarda O‘zbekistonda ta’lim tizimiga qilingan investitsiyalar aks ettirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. World Bank. (2020). *The Human Capital Index 2020 Update*. Washington, DC.
2. World Bank. (2023). *World Development Indicators*.
3. OECD. (2021). *Skills Outlook 2021*. Paris: OECD Publishing.
4. World Health Organization. (2019). *Health, Economic Growth, and Sustainable Development*.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

5. UNDP. (2022). *Human Development Report*. New York
6. O‘zbekiston — 2030” strategiyasini .